



XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni (2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vog'ar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi.


Aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi
(2022- yil yanvar-sentabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi %)




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 4 618 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 3 884 ta, xususiy korxonalar 237 ta, oilaviy korxonalar 212 ta, muassasalar 123 ta va boshqalar 162 tani tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi
(1- oktabr holatiga ko‘ra)



Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(2022- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)




2022- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra sanoat korxonalar va tashkilotlari soni 9 798 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,0 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalar va tashkilotlari soni ko‘payishining asosiy omili ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 2,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 96,4 %), tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 0,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,5 %) o‘shidir.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashda – 94,7 % ni (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %), suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishda – 96,0 % ni (jami sanoatdagi ulushi 1,7 %) tashkil etgan.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 341 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 98,3 % ni tashkil etdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni kamayishining asosiy omili ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarida – o'tgan yilga nisbatan 97,8 % ni (jami qurilishdagi ulushi 29,9 %), bino va inshootlar qurishda – 96,4 % ni (jami qurilishdagi ulushi 61,0 %) tashkil etganidir.

Fuqarolik obyektlarini qurishda o'tgan yilga nisbatan – 15,5 % ga (jami qurilishdagi ulushi 9,1 %) oshgan.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 13 078 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,2 % ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 6,6 % ga (jami savdodagi ulushi 64,1 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashda o'tgan yilga nisbatan – 11,7 % ga (jami savdodagi ulushi 7,3 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 11,2 % ga (jami savdodagi ulushi 28,6 %) o'sishidir.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

1 088



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

18



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

12



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



145

Yashash bo'yicha xizmatlar




1 864

Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2 009 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 0,1 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,8 %), yashash bo'yicha xizmatlar – 2,1 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,2 %) o'sishidir.

**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni**
(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 614 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 97,6 % ni tashkil etdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar sonidan axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyatda o'tgan yilga nisbatan – 1,5 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 10,9 %), nashriyotchilik faoliyatida o'tgan yilga nisbatan – 7,7 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 9,1 %) o'sgan.

Aloqa yo'nalishida o'tgan yilga nisbatan – 99,6 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 45,9 %), kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlarida o'tgan yilga nisbatan – 93,2 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 29,0 %), kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqishda o'tgan yilga nisbatan – 88,9 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 3,9 %), dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishda o'tgan yilga nisbatan – 70,0 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 1,2 %) tashkil etadi.

Oilaviy korxonalar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 3 279 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 212 taga yoki 6,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 997 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 69 taga yoki 2,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 212 ta yangi oilaviy korxonalar tashkil etildi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 32 777 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 3 299 taga yoki 11,2 % ga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 30 699 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 947 taga yoki 10,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 884 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 359 taga yoki 8,5 % ga kamayganligini ko'rsatmoqda.




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni
(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofimlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




**Andijon viloyatidagi xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni**
(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 431 tani tashkil etib, ulardan 417 tasi yoki 96,8 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 31 taga yoki 7,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatimizda 53 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- y.	2019- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Jami	201	286	332	384	417
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	11	25	26	24	28
Sanoat	145	172	188	210	207
Qurilish	7	18	21	25	35
Savdo	18	33	43	56	71
Tashish va saqlash	2	2	5	4	5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7	6	9	10	10
Axborot va aloqa	-	5	4	4	5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	2	5	7	7
Boshqa turlar	10	23	31	44	49

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga (41 808 ta) nisbatan 2 318 taga oshib, o'sish sur'ati 105,5 foizni tashkil etdi. Hududlar kesimida o'tgan yilga nisbatan sezilarli o'sishi Izboskan (115,7 foiz), Xo'jaobod (115,1 foiz), Baliqchi (114,4 foiz), Ulug'nor (112,7 foiz) va Andijon (111,6 foiz) tumanlarida qayd etildi.


**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>
Viloyat bo'yicha:	417	261	156
shaharlar:			
Andijon sh.	166	91	75
Xonobod sh.	18	12	6
<i>tumanlar:</i>			
Andijon	31	21	10
Asaka	30	20	10
Baliqchi	9	5	4
Bo'ston	9	9	-
Buloqboshi	18	10	8
Jalaquduq	17	7	10
Izboskan	8	3	5
Ulug'nor	5	3	2
Marhamat	14	11	3
Oltinko'l	23	16	7
Paxtaobod	9	7	2
Xo'jaobod	16	13	3
Shahrixon	29	21	8
Qo'rg'ontepa	15	12	3

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni
(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida soni
(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida jamidagi ulushi Andijon shahrida 31,3 %, Asaka 7,8 %, Andijon 7,3 %, Shahrixon 6,8 %, Baliqchi 5,5 %, Izboskan 5,3 %, Oltinko'l 4,9 %, Xo'jaobod 4,7 %, Marhamat 4,6 %, Qo'rg'ontepa 4,4 %, Paxtaobod 4,4 %, Jalaquduq 4,0 %, Buloqboshi 3,0 %, Ulug'nor 2,0 %, Bo'ston 1,9 % tumanlari va Xonobod shahri 2,1 % ni tashkil etadi.


**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar
qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**
(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi % da)



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni


(2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, birlikda)




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Bo'ston (26,4 %), Andijon (16,5 %), Shahrixon (12,8 %), Asaka (12,3 %), Qo'rg'ontepa (7,1 %), Baliqchi (3,8 %), Izboskan (3,3 %), Oltinko'l (2,8 %), Jalaquduq (1,4 %), Buloqboshi (1,4 %), Paxtaobod (0,9 %), Ulug'nor (0,9 %), Marhamat (0,5 %) tumanlari va Andijon (9,0 %), Xonobod (0,9 %) shaharlari ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tuzidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining % dagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar - norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.